

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336:336.74

XUDOYBERGANOV HURMATJON EGAMBERGAN O‘G‘LI

**“DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA
PUL-KREDIT SIYOSATINING AHAMIYATI”**

**70410401 - “Davlat moliyasi va xalqaro moliya”
mutaxassisligi bo‘yicha**

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA


**Ilmiy rahbar:
i.f.d: Primova N.I.**

TOSHKENT – 2023


Magistrlik dissertatsiya ishi "Moliya" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

8 - sonli bayonnoma « 25 » aprel 2023-yil.


Kafedra mudiri: Xudoyqulov X.X.


_____ imzo _____ sana

Ilmiy rahbar: Primova N. A.


_____ imzo _____ sana

Talaba: Xudoyberganov H.E.


_____ imzo _____ sana
01.06.2023

Dissertasiya Moliya va buxgalteriya hisobi fakultetida 2023 yil
" 30 " may

№ MBF-01/20 raqami bilan ro'yxatga olindi

ANNOTATSIYA

Pul-kredit siyosati deyilganda, umumiy ma'noda vakolatli davlat organlarining pul va valyuta bozoridagi valyuta kursini, inflatsiyani, bandlikni, iqtisodiy o'sish barqarorligini nazorat qilishga qaratilgan harakatlari. Jahonda keng tarqalgan amaliyotga ko'ra, markaziy banklar pul-kredit siyosatini yuritish uchun javobgardir.

O'zbekiston 2017-2022 yillar davomida pul-kredit siyosati tizimini sezilarli darajada takomillashtirdi. Biroq, mamlakat chuqur tarkibiy islohotlar davrini boshdan kechirayotgani sababli inflyatsion targetlashga o'tish juda qiyin kechmoqda. Ushbu tadqiqot ishida davlatning moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit tizimining o'рни va ahamiyati haqidagi umumiy ma'lumotlar, davlatlar tajribasi bilan bir qatorda eng ko'p urg'uni O'zbekiston Markaziy banki (MB) tomonidan olib borilayotgan joriy pul-kredit siyosati, uni samaradorligini baholash, kelgusi yillarda Markaziy bank boshqaruvini yanada takomillashtirish va mustaqilligini mustahkamlash, moliya bozorlarini rivojlantirish, birinchi navbatda, davlatning moliya tizimidagi hali ham katta ta'sirini kamaytirish maqsadida islohotlarni davom ettirish zarurligi qayd etilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqot ishida pul-kredit siyosatining yo'nalishlari, vositalari, unga ta'sir qiluvchi omillar hamda O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda pul-kredit siyosatining imkoniyatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: *davlat moliyasi, pul-kredit siyosati, monetary siyosat, pul-kredit siyosati samaradorligini baholash, ishsizni kamaytirish, inflatsiyani targetlas.*

ABSTRACT

Monetary policy means, in a general sense, actions of responsible state bodies aimed at controlling the exchange rate, inflation, employment, stability of economic growth in the money and foreign exchange market. According to the widespread practice in the world, central banks are responsible for conducting monetary policy.

During 2017-22, Uzbekistan significantly improved the system of monetary and credit policy. However, since the country is going through a period of deep structural reforms, the transition to inflation targeting is very difficult. In this research work, general information about the role and importance of the monetary and credit system in ensuring the stability of the financial system of the state, along with the experience of the countries, the most emphasis is placed on the current monetary and credit policy carried out by the Central Bank of Uzbekistan has thoroughly been touched. It was noted that it is necessary to evaluate its effectiveness, further improve the management of the Central Bank and strengthen its independence in the coming years, develop financial markets, and, first of all, continue reforms in order to reduce the still large influence of the state in the financial system. Also, in this work, the directions, tools of monetary policy, factors affecting it, and the possibilities of monetary policy in ensuring economic growth in Uzbekistan were studied.

Key words: *public finance, monetary policy, monetary policy, evaluation of the effectiveness of monetary policy, unemployment reduction, inflation targeting*

MUNDARIJA

Annotasiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan qisqartmalar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro‘yxati.....	7
Keltirilgan jadvallar ro‘yxati.....	7
I bob. KIRISH.....	8
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalar.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4. Tadqiqot ob‘yekti va predmeti.....	13
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	14
1.6. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
II bob. ADABIYOTLAR SHARHI.....	15
2.1. Kirish.....	15
2.2. Mavzuga oid ilmiy-amaliy qarashlar sharhi.....	15
2.3. Mavzuga oid mahalliy me‘yoriy-huquqiy xujjatlar sharhi.....	23
2.4. Xulosa.....	26
III bob. METODOLOGIYA.....	27
3.1. Tadqiqot dizayni.....	28
3.2. Ma‘lumotlarni to‘plash jarayoni.....	28
3.3. Tahlil uchun qo‘llanilgan usullar.....	28
3.4. Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar.....	30
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	30
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan natijalar.....	30

IV bob. TAHLIL VA NATIJALAR.....	32
4.1. Pul-kredit siyosatining tahlili va uni amalga oshirish vositalari	32
4.2. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda pul-kredit siyosatining imkoniyatlari.....	46
4.3. Tahlillardan olingan natijalar sharhi.....	54
V bob. XULOSA.....	57
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	57
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	60
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqot uchun takliflar.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	65

KIRISH

Pul-kredit siyosati markaziy banklar tomonidan iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun foydalaniladigan muhim vositadir. Bu siyosat iqtisodiyotdagi pul va kredit taklifiga ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan, bu esa, o'z navbatida, foiz stavkalari, valyuta kursi, inflyatsiya va iqtisodiy o'sishga ta'sir qiladi.

Ta'kidlash lozimki, respublikamizda tarif va pul-kredit sohasida ko'rilgan chora-tadbirlar inflatsiya darajasini asta-sekin pasaytirish imkonini bermoqda, makroiqtisodiy barqarorlik va izchil iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlanmoqda.

2017 yilda boshlangan iqtisodiyotni liberallashtirish va bozor mexanizmlari rolini oshirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichi o'rta muddatli istiqbolda bank tizimi va pul-kredit siyosatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 2-sentabrdagi "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5177-sonli Farmoni bilan valyuta bozorini liberallashtirish jarayonlarida davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan qat'iy monetar siyosat olib borish belgilangan bo'lib, bunda uning instrumentlaridan faol va moslashtirgan holda foydalanishni nazarda tutish, davlatning qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, shuningdek, ochiq bozorda operatsiyalarni amalga oshirish amaliyotini hamda davlat qimmatli qog'ozlarini garovga qo'yish bilan banklarning likvidligini oshirish bo'yicha operatsiyalarning joriy etilishi ma'lumot uchun qabul qilindi.

Ushbu yo'nalishdagi muhim qarorlardan biri milliy valyuta almashuv kursining bozor mexanizmlari asosida shakllanish tamoyillarini joriy etish orqali ichki valyuta bozorini bosqichma-bosqich liberallashtirilishi bilan bog'liq amaliy qadamlar bo'lgan deb hisoblay olamiz.